

ABU MANSUR IBN ZAYLANING “KITABU-L-KAFI FI MUSIQA” ASARIDA CHOLG‘USHUNOSLIKKA OID NAZARIY G‘OYALAR

Ro‘zimurodov Ilyosjon Azamat o‘g‘li – Xalqaro Nordik universiteti.

katta o‘qituvchisi

e-mail: ilyosrozimurodov9@gmail.com

Annotatsiya: Abu Mansur Ibn Zaylan, Xorazmda yashagan 10-asr musiqashunos olimlardan biridir. Uning "Kitabu-l-Kafi fi Musiqa" ("Musiqaaga Doir To‘liq Kitob") asari o‘z davrining eng muhim musiqiy asarlaridan biri bo‘lib, musiqashunoslikka oid ko‘plab nazariy g‘oyalar va ilmiy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asar musiqaning nazariy jihatlarini, uning tarixi va texnikasini, shuningdek, musiqaning turli shakllarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tayanch iboralar: Ibn Zayla turli cholg‘u cholg‘ularining (sitar, nay, duff, tar) strukturalarini, ularning tovush chiqarish mexanizmlarini va musiqiy ijro uslublarini tahlil qilgan. U cholg‘ularning har biri o‘ziga xos tovush va hissiyotlarni yaratishi mumkinligini aytgan.

Аннотация: Абу Мансур ибн Зайлан – один из музыковедов 10 века, живших в Хорезме. Его «Китабу-л-Кафи фи Музыка» («Полная книга музыки») является одним из самых важных музыкальных произведений своего времени и содержит множество теоретических идей и научных взглядов на музыковедение. Данная работа посвящена изучению теоретических аспектов музыки, ее истории и техники, а также различных форм музыки.

Ключевые фразы: Ибн Зайла проанализировал строение различных инструментов (ситар, флейта, дафф, тар), механизмы их звукоизвлечения и музыкальные стили исполнения. Он рассказал, что каждый из инструментов способен создавать уникальные звуки и эмоции.

Annotation: Abu Mansur ibn Zaylan is one of the musicologists of the 10th century who lived in Khorezm. His Kitabu-l-Kafi fi Muzyka (The Complete Book of Music) is one of the most important pieces of music of its time and contains many theoretical ideas and scientific views on musicology. This work is devoted to the study of the theoretical aspects of music, its history and technique, as well as various forms of music.

Key phrases: Ibn Zayla analyzed the structure of various instruments (sitar, flute, duff, tar), the mechanisms of their sound production and musical styles of performance. He said that each of the instruments is able to create unique sounds and emotions.

Kirish

Abu Mansur ibn Zayla (998-1049) nomi bilan ilm ahli orasida mashhur bo‘lgan zotning to‘liq ismi sharifi Abu Mansur al-Husayn bin Muhammad (bin Tohir) bin Umar bin Zayla al-Isfahoniy. Bu to‘liq ismda Abu Mansur - kuniya, Husayn - olimning o‘z ismi, Muhammad (bin Tohir) - otasining ismi, Umar - bobosining ismi, biroq, Ibn Zayla xususida bir sobit fikr aytmoq mushkul. Ehtimol Ibn Sino kabi Ibn Zayla so‘z birikmasi ham sirli bir taxallusdir. Isfahoniy sifati esa allomaning asli Isfahondan ekaniga ishora. Ibn Zaylaning o‘ta kuchli zakovati

tufayli, uni Hakim (donishmand, faylasuf) deb ulugʻlaganlar, Shayx (ustoz) deb hurmatlaganlar. Abu Mansur ibn Zayla Ibn Sinoning maslakdoshlaridan, izdoshlaridan va yaqin shogirdlaridan biri boʻlgan. “Har kuni kechasi Abu Ali ibn Sino uyida tolibi ilmlar yigʻilar, shogirdlar navbat bilan undan dars olar, navbatmanavbat Abu Ubayd “Shifo kitobi”dan, Maʼsumiy “Qonun”dan, Ibn Zayla “Ishorot”dan, Bahmanyor “Al-hosil va-l-mahsul” kitobidan oʻqir edilar. Ular oʻqishni tugatganlarida xonandalarni taklif etishar, tanavvul qilishar edi”. Umuman, Ibn Sinoning shogirdlari qatorida koʻproq eslanadigan, Ibn Sino bilan muloqot va mubohasotlarda koʻp boʻlgan, Ibn Sinoga ergashib, ilmiy asarlar taʼlif etganlar Bahmanyorbin Marzubon (vafoti 458 hijriy yil), Abu Ubayd Abdulvohid Juzjoniy (XI), Abu Abdulloh Maʼsumiy (XI) kabilar orasida Abu Mansur ibn Zaylaning ilmiy salohiyati, oʻrni oʻzgacha. Uning ustozlari Ibn Sino bilan qilgan ilmiy bahslari natijasida “Mubohasot” asari paydo boʻldi. Maʼlumki, Ibn Sinoning koʻp asarlari ahli ilmga va ahli ilmni qoʻllab-quvvatlovchi mansabdorlarga bagʻishlab, ularga hurmat yuzasidan yozilar edi. Shu jihatdan Ibn Sino oʻzining “Taʼliq-l-mantiq” va “Hayy ibn Yaqzon” asarlarini Ibn Zaylaga bagʻishlab yozishi eʼtiborlidir. Ibn Zayla arab ilmlaridan barchasining bilimdoni, u matematikada taniqli, musiqa sohasida mahoratli, insho sanʼatida komil boʻlgan. Ibn Zayla musiqa ilmidagi xizmatlari boʻyicha Forobiy va Ibn Sinoga tenglashtiriladi. Abu Mansur ibn Zaylaning ilmiy asarlaridan quyidagilarni sanab oʻtish joiz: 1964 yil Ibn Zaylaning “Musiqaga oid toʻliq kitob”ning qoʻlyozma matni borligi, u Hindistonning Rampur shahridagi Rizo kutubxonasidagi 3094 jild ichida, boshqa musiqiy risolalar bilan birga saqlanishi maʼlum boʻldi. Bu matn jildning 1-21 varaqlarida joylashgan boʻlib, 41 betdan iborat. Har betda 17 qator yozuv bor. Yozuvi juda mujmal, noaniq, xatolari koʻp. Xati - nastaʼliq. Uning foto nusxasi Arab davlatlari uyushmasining Qoʻlyozmalar institutida saqlanmoqda. Qoʻlyozmaning hujjatida aytilishicha, u hijriy IX asrga (milodiy XV asr) mansub. Aslida, Abu Mansur ibn Zaylaning “Musiqaga oid toʻliq kitobi”ning qoʻlyozma matni topilgani haqidagi ilk xabar 1940 yil eʼlon qilingan. U Londondagi Britaniya muzeyi Sharq qoʻlyozmalari boʻlimining arab va fors tillaridagi musiqa ilmiga oid noyob qoʻlyozma kitob va risolalarni oʻzida mujassamlashtirgan Tracts on Music. Arabic. (Musiqalarisolar. Arabcha.) umumiy sarlavhasi ostidagi katalog Or. 2361 raqamli (ruxsatnoma №740792) jild ichidan topilgan.

Abu Mansur ibn Zaylaning “Musiqaga oid toʻliq kitobi” jildning 220 varagʻining yuz tarafidan 236 varagʻining orqa tarafini egallaydi, yaʼni 33 yarim bet. Har varaq oʻlchami 17x9 sm. Har betda 23 qator yozuv bor. Har qator yozuv oʻrtacha 13 soʻzdan iborat. Xati Amir Temur davrida shakllangan, Movarounnahr va Xurosonda ilmiy adabiyotning ham asosiy xatiga aylangan - nastaʼliq xati. Xattot ismi koʻrsatilmagan, ammo u yozma arab tilini yaxshi bilmagan boʻlishi mumkin, chunki yozuvda xatolar, tushirib qoldirilgan soʻzlar, noaniqliklar koʻp. “Musiqaga oid toʻliq kitob”ning Britaniya muzeyi nusxasida xattot bilan birga hoshiyalarni bezagan, asarning boshi va oxiriga naqshlar ishlagan sanʼatkor - lavvoh xizmatlari ham eʼtiborga loyiq. Ammo hoshiyalardagi yozuvlar asosiy matn yozuvi bilan bir xil - nastaʼliq xatida bitilgan. Qoʻlyozmada tinish belgilar ishlatilmagan,

asar mavzular bo'yicha qism va fasllarga bo'linmagan, shu bois sarlavhalar ham qo'yilmagan. U boshidan oxirigacha to'xtovsiz davom etadi.

Adabiyotlar Tahlili:

Abu Mansur ibn Zayla (X asr) islomiy cholg'u san'ati va musiqa nazariyasida o'zining muhim o'rni bilan tanilgan shaxsdir. Uning asari, "Kitabu-l-Kafi fi Musiqa" (Musiqa bo'yicha To'liq Kitob), o'rta asr sharq musiqasi haqidagi eng asosiy asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarda, Ibn Zayla musiqaning nazariy va axloqiy jihatlarini chuqur tahlil qiladi, shuningdek, musiqaning inson ruhiga ta'sirini o'rganadi. Asarda cholg'ushunoslikka oid ko'plab nazariy g'oyalar keltirilgan bo'lib, ular musiqa ilmini ilmiy nuqtai nazardan o'rganishga asos yaratadi.

Abu Mansur ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitob"ning tanqidiy matni 1964 yil Qohirada, mo'jaz muqaddima bilan nashr etildi. U o'z davrida foydali bir ish bo'lgan bo'lsa-da, ilmiy jihatdan yetarli jihozlanmagan, qadim atamalar yoritilmagan. Bunga sabab, al-Kindiy va Ibn Sinoning musiqaga oid risolalarining nashrida mazkur vazifalar bajarilganligi deb ko'rsatiladi. "Musiqaga oid to'liq kitob"dagi sifati, birinchi navbatda, "etarli, kifoyali" degan ma'nolarni anglatadi va uni shunday tarjima qiladilar, lekin joyi kelganda "to'liq", "but" tushunchasini ham beradi va bu holda uni shunday tarjima qilmoq lozim. Shuni ham e'tiborga olmoq kerakki, o'rta asr olimlarining asarlarini ayrim sifatlarini qo'shib atash an'anasi ham bo'lgan. Bu holda "katta", "kichkina", "qisqartma", yoki "to'liq" deb tarjima qilmoq mazmunan ham, mantiqan ham to'g'ri bo'ladi. Masalan, Forobiyning "Katta musiqa kitobi", Abulfaraj Isfahoniyning "Katta qo'shiqlar kitobi" yoki Abu Abbos Saraxsiyning (IX) "Kichik musiqa kitobi" va Ibn Sinoning "Musiqa ilmida qisqartma"si, Abulvafo Buzajoniyning (X) "Iyqo' bobida qisqartma"si yoki Hofiziddin Nafiyning (XIV) "To'liq kitob"i, Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitob"i va h.k. Ibn Zayla o'z kitobini "risola" deb ham atagan. "Risola" so'zi dastlabki, bosh ma'nosini ("yuborilgan muqaddas vazifa", "maktub", "noma") saqlagan holda, o'rta asrlarda nomalar shaklidagi "adabiy asar" va "juda katta bo'lmagan ilmiy kitob" ma'nosini anglatuvchi atamaga aylandi. "Risola" o'zbek tilida ham "risola" deyiladi.

O'rta asr musulmon olimlarining bari o'z asarlarini "Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan" iborasi bilan, ba'zan bu kalimaga yana "va undan yordam tilab" iborasini yoki shu kabi iborani qo'shib boshlaganlar. Masalan, Ibn Sinoning "Musiqa ilmi to'plami" qo'lyozmalaridan biri "Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan, mening muvaffaqiyatim faqat Allohning yordami bilandir" deb boshlanadi. Bu o'z diyonatini ta'kidlash ham bo'lgan. Bu qo'lyozma asar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda (№10651).

Ibn Zaylaning "Musiqaga oid to'liq kitob"i kalimai shaxodat bilan boshlanadi. Biz yuqorida, asar mavzular bo'yicha qism va fasllarga bo'linmaganligini, shu bois sarlavhalar ham qo'yilmaganligini, u boshdan oxir uzluksiz davom etishini aytib o'tgan edik. Tushunish oson bo'lmog'i uchun biz kitobni mavzular bo'yicha besh qismga, qismlarni, o'z navbatida, quyidagicha fasllarga bo'ldik va sarlavhalar bilan ajratdik:

I. Musiqa ilmiga kirish;

- a) Musiqa ta'rifi;
- b) Tovush hosil bo'lishi va uning sabablari;
- c) Tovushning nafsga ta'siri;
- d) Yoqimli va yoqimsiz nag'malar – konsonans va dissonanslar.

II. Ta'lif (kompozitsiya) ilmi

- a) Bu'd (interval) turlari;
- b) Jins (tetraxord) va uning turlari;
- c) Bu'dlarni qo'shish va ayrish;
- d) Jam (tovushlar tizimi, lad);
- e) Ko'chish, harakat

III. Iyqo' (ritm) ilmi

- a) Iyqo';
- b) Iyqo' turlari.

IV. Musiqa yaratish

- a) Musiqa yaratish ilmi;
- b) Musiqa turlari

V. Musiqa cholg'ulari

- a) Musiqa cholg'ulari;
- b) Udning sozlanishi;
- c) Nay.

Metodologiya: Abu Mansur Ibn Zaylaning "**Kitabu-l-Kafi fi Musiq**" asarida cholg'ushunoslikka oid nazariy g'oyalar musiqaning tabiati, uning ijtimoiy roli va ilmiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Ibn Zaylan musiqani inson ruhiga ta'sir etuvchi, hissiyotlarni uyg'otuvchi ilmiy va falsafiy bir fenomena sifatida ko'rgan. U musiqaning o'lchovlari, ritm, maqom tizimi va aritmetik asoslarini ishlab chiqqan, shu bilan birga, musiqa va musiqiy cholg'ular haqidagi ilmiy yondashuvni ilgari surgan. Musiqaning ijtimoiy va madaniy ahamiyatiga urg'u berib, uni jamiyatdagi ruhiy va ma'naviy rivojlanishning muhim vositasi deb bilgan. Asarida musiqaning tarixiy rivojlanishi, yangi janrlar va ijro texnikalari hamda musiqaning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida keng fikr yuritilgan, bu esa musiqashunoslikni ilmiy va falsafiy nuqtai nazardan yuksaltirgan.

“Musiqa ilmiga kirish” deb nomlanuvchi birinchi qismning boshidayoq Ibn Zayla musiqani ta'riflaydi, musiqa ilmining o'rganish mavzulari (ob'ektlari) ning asosiylarini aniqlab beradi. “...musiqa ilmi ikki bahsni o'z ichiga oladi, ulardan biri, nag'malar (tonlar)ning yoqimli yoki yoqimsizligi nuqtai nazaridan, ularning holati haqidagi bahs bo'lib, ‘Ilmu-t-ta'lif - “Ta'lif (kompozitsiya) ilmi” deb ataladi, ikkinchisi, nag'malar orasidan o'tadigan zamon miqdori haqidagi bahs bo'lib, ‘Ilmu-l-'iyqa - “Iyqo' (ritm) ilmi deyiladi”. Lotin tilidan olingan atamalar ton (tonos - urg'u) - nag'ma, kompozitsiya (compositio -tuzish, moslashtirish) - ta'lif va ritm (rhythmos - tartibli almashish) - iyqo' shaklida o'zbek tiliga qabul qilinishi durust. Demak, nag'malar tuzilishi, shakli haqida bahs yurituvchi ta'lif ilmi va nag'malarning uzun-qisqaligi jihatidan munosabatlarini tadqiq etuvchi iyqo' ilmi “... orqali musiqa yaratish yo'llari o'rganiladi”.

“Ta’lif ilmi” deb atalgan ikkinchi qismning boshidayoq hisob yo‘li bilan nag‘malar orasidagi yoqimli (konsonans) nisbatlar aniqlab olinadi. Yoqimli nisbatlar ikkiga bo‘linadi: birinchi daraja moslashuvdagi yoqimli nisbatlar va ikkinchi daraja moslashuvdagi ohangdosh nisbat.

Bu’d turlari – katta, o‘rta va kichik bu’dlarga ta’rif beriladi va ular tarkibidagi nag‘malar o‘rni ud pardalarida ko‘rsatiladi. “Iyqo‘ ilmi” deb nomlangan uchinchi qism iyqo‘lar mavzusiga bag‘ishlangan. Ibn Zayla ta’kidlab yozadi: “Oralaridan muayyan vaqt o‘tmay, birga chalingan nag‘malardan kuy tuzish mumkin emas. Kuy, oralaridan vaqt o‘tib, birin-ketin keladigan nag‘malardan tuziladi”. Kuy “nag‘malari orasidan o‘tadigan zamon miqdori haqidagi bahs esa (Iyqo‘ ilmi)deyiladi”.

“Musiqqa yaratish” deb ataluvchi to‘rtinchi qism muhim amaliy masalalarni qamrab olgan. Bu qismning boshidayoq Ibn Zayla: “Musiqqa ilmining nihoiy maqsadi bo‘lgan musiqqa yaratish ilmi nag‘malarni tushunish va iyqo‘larni bilish poydevori ustiga quriladi. Men bu borada yetarlicha so‘z yuritdim, endi musiqqa tuzish va bunga aloqador turli holatlar hamda musiqqa qanday his etilishligi haqida so‘z qoldi” deb yozgan va “kuy” atamasi qanday hodisa yoki voqelikka nisbatan ishlatilishi haqida fikr yuritgan edi. Demak, kuyni nazariy jihatdan o‘rganish, nazariy musiqqa - musiqqa ilmiga aloqador, ammo kuy yaratish va uning ijrosi amaliy musiqqa tegishlilik borasidagi ta’kidlardan so‘ng gap bevosita musiqqa bastalash masalasiga o‘tadi.

"Kitabu-l-Kafi fi Musiq" (الموسيقى في الكافي الكتاب " أو) — bu arab musiqasi, uning nazariyasi, tarixi va amaliyoti haqidagi eng muhim asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu kitob, asosan, musiqaning ilmiy va san'at jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning turli uslublari, tizimlari va yondashuvlarini batafsil tahlil qiladi.

Agar sizning so‘rovingiz "Kitabu-l-Kafi fi Musiq" kitobi bilan bog‘liq tahlil va natijalar haqida bo‘lsa, quyidagi ma'lumotlar kitobning umumiy tarkibi va asosiy kontseptsiyalarini ko‘rsatadi:

1. Tahlil:

- **Musiqqa nazariyasi:** Kitobda musiqaning asosiy nazariy jihatlari, ya'ni tonalitiya, interval va ritm kabi mavzular chuqur tahlil qilinadi. Bu musiqiy tilning asoslarini tushunishga yordam beradi.
- **Musiqqa va matematika:** Musiqqa va matematika o‘rtasidagi bog‘liqlik, masalan, intervalning musiqiy va matematik o‘lchovlari, tovushlar orasidagi muvozanat haqida so‘z boradi.
- **Qadimiy musiqiy an'analar:** Kitobda an'anaviy musiqiy tizimlar va uslublari haqida tahlil mavjud. Ular orasida Sharqiy musiqaning o‘ziga xos xususiyatlari ham ko‘rib chiqiladi.
- **Musiqiy cholg‘ular:** Kitobda musiqiy cholg‘ular va ularning tuzilishi haqida ma'lumot beriladi. Shu bilan birga, turli xil cholg‘ularning har biri qanday

qilib tovush yaratishiga, va uning musiqiy kompozitsiyaga ta'siri haqida ma'lumotlar taqdim etiladi.

- **Musiqiy ijro va ifoda:** Musiqaning ifodaviy jihatlari, uning ijro etilishidagi texnik va emosional elementlar ham muhokama qilinadi. Ijrochi va kompozitorning rolini tushunish uchun bu bo'lim juda muhim.

2. Natijalar:

- **Musiqaning ijtimoiy ahamiyati:** Kitobda musiqaning jamiyatdagi o'rni va roli, u orqali ifodalanadigan madaniy va emosional xususiyatlar o'rganiladi. Musiqa nafaqat san'at shakli, balki ijtimoiy kommunikatsiya vositasi sifatida ham ko'rib chiqiladi.
- **Musiqiy rivojlanish:** Musiqa nazariyasining rivojlanishi, yangi yondashuvlar va uslublar yaratish imkoniyatlari, shuningdek, musiqaning kelajagi haqida mulohazalar mavjud.
- **Praktik natijalar:** Kitobning tahlillari musiqiy amaliyotga qanday ta'sir ko'rsatishi, musiqiy asarlarni yaratish, ifoda etish va tinglash jarayonlarida qanday natijalarga olib kelishi mumkinligi haqida fikrlar mavjud.

Musiqa cholg'ulari deb ataganimiz beshinchi qism muqaddimasida o'zining yoqimli tovushlari bilan ajralib turuvchi pardali torli tirnama cholg'ular ud va tanbur, pardalarsiz torli tirnama mi'zafa arfasimon cholg'u, puflama cholg'ular, mazamir va kamonchali cholg'u rabab sanab o'tiladi va musiqa cholg'ularining inson ovozigacha taqlid qila bilishlari masalasi o'rganiladi. Ibn Zayla yozadi: "Halqum (inson ovozi)ga, boshqalarga nisbatan ko'proq taqlid qila oladigan, ergasha oladigan musiqa cholg'ulari rabab kamonchali cholg'u, mizmar-puflama cholg'ular, udlar, mi'zafa-arfasimon cholg'u va uning hamjinslari, so'ngra biz eslagan boshqa cholg'ular..., ammo taqlidning to'liqligida rabab kamonchali cholg'u va surnaylarga yetadigani yo'q".

Musiqa cholg'ulari tasnif qilinadi va quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Torli, pardali tirnama cholg'ular: ud va tanbur kabilar.

Torli, pardalarsiz, nag'malar orasidagi farq torning uzun va qisqaligi bilan belgilanuvchi cholg'ular: sanj va shohrud kabilar.

Torli, pardalarsiz, nag'malar orasidagi farq eshak va xarraklar vositasida torni qisqartirish yo uzaytirish orqali belgilanuvchi cholg'ular: anqo kabilar.

Torli bolg'acha, cho'plar bilan urib chalinuvchi cholg'ular: xitoy changi kabilar.

Puflama-damli cholg'ular: nay, yaro'a, arg'anun, surnay va meshli surnay kabilar.

Cho'ziq, muttasil tovushli cholg'ular: nay, surnay va rabab (kamonchali cholg'u) kabilar.

Usul berib turuvchi urma cholg'ular: nog'ora, doira, qo'lqarsak kabilar.

Usul berib turuvchi urma cholg'ular haqida gap ketganda qo'l bog'lab ijro etiladigan raqs turi dastband ham eslatiladi.

Ibn Zayla "Omnia orasida keng qo'llanib kelinayotgan musiqa cholg'ularidan biri - ud" deb ud sozining torlari, pardalari, nag'malari va uni sozlash yo'llari haqida to'liq

yozgan. Ibn Zayla "Mashhur sozlash" deb atalgan udni sozlash yo'li haqida batafsil bahs yuritadi. Mazkur qismning oxirgi fasli nayga bag'ishlanadi. Demak, Ibn Zayla yunon va qadimiy rimliklar musiqiy-nazariy merosiga ijodiy yondashdi, Forobiy va Ibn Sinoning Sharq musiqa ilmidagi yutuqlarini yangi davr talablari asosida rivojlantirdi hamda Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining mahalliy musiqa amaliyotiga suyangan holda sof ilmiy yo'nalishda Sharq musiqa nazariyasini yangi rivoj pog'onasiga ko'tardi.

Xulosa: Abu Mansur ibn Zaylaning "kitabul-kafi fi musiqa" asarida cholg'ushunoslikka oid nazariy g'oyalar Abu Mansur ibn Zaylaning "Kitabu-l-Kafi fi Musiqa" (Musiqa bo'yicha To'liq Kitob) asari o'rta asrlar islomiy musiqa nazariyasining muhim manbalaridan biridir. Asarda, musulmon sharqidagi musiqa ilmiga oid nazariy g'oyalar, musiqaning tuzilishi, uning maqsadi va ijtimoiy ahamiyati haqida batafsil fikrlar keltirilgan. Ibn Zayla asarida musiqaning falsafiy asoslarini, ayniqsa uning ruhshunoslik va axloqiy jihatlarini ko'rib chiqadi. Musiqa inson ruhiga ta'sir ko'rsatish, uning holatini o'zgartirish va axloqiy fazilatlarni shakllantirish vositasi sifatida tasvirlanadi. Ibn Zayla musiqaning ta'sirini nafaqat estetik, balki diniy va axloqiy nuqtai nazardan ham baholaydi. U musiqaning to'g'ri va noto'g'ri ishlatilishini ta'kidlaydi, ya'ni musiqaning odamning ruhiyatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida mulohazalar yuritadi.

Asarda musiqaning asosiy elementlari — tovush, ritm, interval, va maqomlar — hamda ularning inson ruhiga ta'siri haqida tahlillar mavjud. Ibn Zayla musiqaning ilmiy va texnik jihatlarini bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lib, o'z asarida musiqaning nazariy asoslari, cholg'ular va ularning ishlatilishi haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Cholg'ushunoslikka oid nazariy g'oyalar, ayniqsa, musiqaning tasnifi va uning tuzilishini o'rganish, musiqaning ijtimoiy va axloqiy rollari haqida fikr yuritishda davom etadi. Ibn Zayla musiqani faqat estetik tajriba sifatida emas, balki uning diniy va axloqiy vazifalarini ham e'tiborga oladi. Shu bilan birga, uning asari musiqaning ma'naviy ahamiyatini yuqori baholaydi, lekin musiqaning ortiqcha va noto'g'ri qo'llanilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Mansur ibn Zaylaning "Kitabu-l-Kafi fi Musiqa" asari musiqaning nazariy asoslarini o'rganishdagi muhim manbalardan biri bo'lib, uning musiqaga oid g'oyalari o'z zamonidagi musiqiy tafakkurni chuqur yoritadi. Asar nafaqat musiqaning texnik jihatlarini, balki uning inson ruhi va axloqi bilan bog'liq o'rni haqida ham qimmatli tafsialarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Jomiy A. Risola-yi musiqiy. Fors tilidan Nafas Shodmon tarjimasi. –Toshkent: 1997. – 49 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tarjimai hol. –Toshkent: 1980.

3. Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika (Aruz, qofiya, badiiyat ilmi istilohlari tarixiga oid). –Toshkent: TDSHI, 2001. – 92 b.
4. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. –Toshkent: Fan, 1980. - 208 b.
5. Irisov A. Muallim As-Soniy.// Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent: A.Qodiriy nashriyoti, 1993.
6. Qosimov R. Ud.-Toshkent: 2002. – 48 b.
7. Nazarov A. Musiqa ijodiyoti masalalari. Abu Nasr al-Forobiy. Kitabul musiqa al-kabir. Arab tilidan tarjima va izohlar. I tom. –Toshkent. 1997.
8. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida (mumtoz iyqo’ nazariyasi). –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1995. – 131 b.
9. Oripov Z. Abu Abdulloh Xorazmiy – musiqashunos. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2006. 10 noyabr.
10. Oripov Z. Abu Abdulloh Xorazmiyning musiqashunoslikka oid asari. O‘zbekistonda zamonaviy musiqa san’ati muammolari. - Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2006. – 30-34 b.
11. Oripov Z. Ibn Zaylaning “Kitabu-l-kafi fi-l-musiqa” risolasidagi musiqashunoslik atamalari. Monografiya. -Toshkent: ToshDSHI, 2008. -220 b.